

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA TA'LIM VAZIRLIGI

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti

PEDAGOGIKA FAKULTETI

“Boshlang'ich ta'limda gumanitar fanlarni o'qitish uslubi” kafedrası

**5141600- Boshlang'ich ta'lim va sport, tarbiyaviy ish yo'nalishi 3-kurs
talabasi**

Salohiddinova Muhayyoning

**“Ona tili o'qitish metodikasi”
fanidan**

KURS ISHI

MAVZU: “Savod o'rgatish davri yozuv darslarida nutq o'stirish”

Ilmiy rahbar: k.o'qit. X.Xo'janov

Samarqand-2011

REJA:

I. KIRISH.

II. ASOSIY QISM:

1.bob. Savod o'rgatish davri yozuv darslari tarixidan

1.1. Savod o'rgatishda mashg'ulotlar tizimi

1.2. Savod o'rgatish davrida yozuvga tayyorlash.

2.bob. Savod o'rgatishda tayyorgarlik davri va nitq o'stirish.

2.1. Bog'lanishli nutq ustida ishlash usullari

2.2. Savod o'rgatish jarayonida nutqqa o'rgatish

III. XULOSA.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

I.KIRISH

MAVZUNING DOLZARBLIGI. Ona tilidan olib boriladigan ishlarning hammasi, shu jumladan, savod o'rgatish ham, o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stirish bilan bog'liq holda uyushtiriladi. Savod o'rgatish davridagi ishlarning miqyosi keng bo'lib, ekskursiyalar, bolalarning kuzatishlari, predmet darslar, rasm yuzasidan suhbat va boshqalar bilan bog'lanadi. Bu davrda o'quvchilar nutqini o'stirishning vazifalari:

- 1) bolalar nutqidagi kamchiliklarni to'g'rilash;
- 2) ularning tasavvur va tushuncha doirasini kengaytirish bilan bog'liq holda lug'atini boyitish;
- 3) o'quvchilar nutqidagi ayrim so'zlarning ma'nosiga aniqlik kiritish;
- 4) gap va uch—turt gapli kichik «hikoyacha» (bog'lanishli nutq)ni og'zaki turli tuzish ko'nikmasini o'stirishdan iborat. Bolalar bu davrda, birinchidan, kiyim-kechak, ish qurollari, mevalar kabi predmetlar bilan tanishish yordamida so'zni ongli ishlatishga; ikkinchidan, turli tipdagi sodda yirik gap (Bolalar yuguryaptilar), sodda yoyiq gap (Lola magazinga bordi), uyushiq bo'lakli gap (Anvar oyisiga yordamlashadi, ukasiga qaraydi), qo'shma gap (O'g'il bolalar qushlarga in yasashyapti, qizlar don berishyapti) tuzadilar. Ular bu ko'nikmalarni amaliy—mashqlar yordamida egallaydilar.

Bolalarning shaxsiy tajribalari, kishilar hayoti va tabiati, kuzatishlari nutq o'stirish uchun asosiy manba hisoblanadi. Predmetlar, uy—ro'zg'or asboblari, o'simliklar, hayvonlar qiziqarli suhbat uchun tema bo'lib xizmat qiladi. Suhbat jarayonida bolalarda hosil qilingan tasavvur asosida aniq tushunchalar shakllanadi.

Birinchi sinf o'quvchilari nutqni o'stirishda bolalarning o'yin va ermaklari, rasm ko'rish va Bu nima? Bu kim? Bu qanday predmet? Kim nima qilyapti? kabi savollar asosida suhbatdan ham foydalaniladi.

Savod o'rgatish davrida nutq o'stirishga oid ish turlariga atrofdagi jonli predmetlarning nomini, ularning belgilarini aytish, predmetlarni ma'lum belgilari asosida gruppalash kabi mashqlar kiradi.

MAVZUNING ISHLANGANLIK DARAJASI. Umumiy o'rta ta'limning Davlat standartlari va o'quv dasturiga mashg'ulotlarida savod o'rgatish darslarida hosil qilingan ko'nikma va malakalar asosida bolalarning ona vatan, istiqlol, milliy qadriyatlar haqida ta'lim sohasida Q.Shodiyeva, F.R.Qodirova, M.R.Qodirova, Y.Razbayeva, Q.Abdullayeva, K.Nazarov, Sh.Yo'ldosheva, K.Qosimova, S.Matchonov, Sh.Sariyev, O.Roziqov, M.Mahmudov, B.Adizov, A.Hamroyev va boshqalar qator o'quv qo'llanmalar, darsliklar, uslubiy qo'llanmalar yaratganlar. Yuqorida keltirilgan olimlarimizdan Q. Shodiyeva, Q.Abdullayeva, K.Nazarov, SH.Yo'ldoshevalarning maktabgacha ta'limda va umuman, savod o'rgatish metodikasi bo'yicha olib borgan ishlarini alohida ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqdir. Chunki, aynan, ularning olib borgan tadqiqotlari bolalarni savodga o'rgatish sohasida katta ahamiyatga egadir.

TADQIQOTNING OB'EKTI. Savod o'rgatish darslari boshlang'ich sinflarda o'tiladigan barcha predmet dasturlarining bo'limlari bilan bevosita bog'liq mashg'ulotlarning yangiligini ta'minlashga qaratilgan innovatsion texnologiyalar asosida dars o'tish jarayoni tadqiqotimizning ob'ektini tashkil etadi.

TADQIQOTNING PREDMETI. Savod o'rgatish darslari o'qish samaradorligini ijobiy tomonga ta'sir qilishning eng qulay usulidir. Sinfda va sinfdan tashqari o'qish darslari boshlang'ich sinflarda o'tiladigan barcha predmet dasturlarining bo'limlari bilan bevosita bog'liq. O'qish darslarida o'tilgan mavzular asosida badiiiy kitblar axtarish, asar qahramonlarining nomlarini yozish, ularni tasvirlab berish, ijodiy rasm ishlash, fikrni yakunlash uchun mos maqollar yod olish ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb metodik manba ekanligini aniqlash, ularning didaktik asosini belgilash ham mashg'ulotning predmeti hisoblanadi.

TADQIQOTNING MAQSADI. Savod o'rgatish mashg'ulotlarida va unga ma'lum bir o'zgartirishlar kiritishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samarali usullarini shakllantirish kurs ishi mavzusi bo'yicha olib borayotgan tadqiqot ishimizning maqsadi hisoblanadi.

TADQIQOTNING VAZIFASI: Yuqorida oldimizga qo'ygan maqsadimizdan kelib chiqib:

1. Kurs ishida tanlangan mavzu bo'yicha ijtimoiy-pedagogik, falsafiy-ma'rifiy, ilmiy-metodik hamda o'quv adabiyotlarni o'rganib chiqish va umumlashtirish.
2. Savod o'rgatish mashg'ulotlari o'qish darslariga oid mashg'ulotlari bilan ishlash jarayonini o'rganish va tahlil qilish.
3. Mavzuga oid ilmiy metodik manbalarni o'rganish va tahlil qilish asosida Savod o'rgatish mashg'ulotlarini shakllantirishga oid mashg'ulot mazmuni, maqsadi va qurilishini o'rganish hamda qayta takomillashtirish dolzarb nuammo ekanligini aniqlash.
4. Savod o'rgatish darslari o'qish mashg'ulotlariga oid mashg'ulotlarning samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan yangi pedagogik texnologiyalar asosida dars ishlanmalarini yaratish.

TADQIQOT ISHINING ILMIY FARAZI.

- Savod o'rgatish mashg'ulotlarini shakllantirishga oid mashg'ulotlar bugungi davr va bugungi kun bolasi nuqtai nazarini hamda uning individual, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlantirish;
- Savod o'rgatish darslarini shakllantirishga oid mashg'ulotlarning izchil tizimi yaratish;
- Savod o'rgatish mashg'ulotlarini shakllantirishga oid mashg'ulotlarni takomillashtirishning yangi-yangi usullari o'ylab topish;

TADQIQOTNING METODOLOGIK ASOSLARI. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", prezidentimiz I.A.Karimovning asarlari va ma'ruzalarida bayon qilingan ta'limni isloh qilish, maktabgacha ta'limni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar, qarashlar, ta'lim jarayonini takomillashtirishga yo'naltirilgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, ilmiy-metodik manbalar.

TADQIQOT ISHINING ILMIY AHAMIYATI. Ushbu kurs ishini bajarish natijasida boshlang'ich sinflarda Savod o'rgatish darslari kichik yoshdagi o'quvchilarni ona tilini puxta o'zlashtirishga tayyorlashning ajralmas qismi, ta'lim jarayonida ularni ahloqiy-estetik tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qaraladi. Sinfdan tashqari o'qishning maqsadi kichik yoshdagi o'quvchilarni bolalr adaboyoti va xalq o'gzaki ijodining xilma-xil namunalari bilan tanishtirish, ularda kitobxonlik madaniyatini tiklashga oid mashg'ulot ishlanmalarini, uning maqsadi, mazmuni, tipi, qurilishiga oid yangi tushunchalari bilan boyitishning didaktik asoslari ko'rib chiqildi hamda ilmiy-metodik tavsiyalar bilan boyitish nazarda tutildi.

TADQIQOT ISHINING AMALIY AHAMIYATI. Tadqiqot natijasida aniqlangan ilmiy yondashuvlar, ishlab chiqilgan tavsiyalardan nutqning tovush madaniyatini shakllantirishga oid mashg'ulotlarini boyitish, maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan turli o'quv pretmetlarini takomillashtirish hamda ularning bilimini, malakasini oshirishda keng foydalaniladi.

KURS ISHINING TARKIBIY TUZILISHI. Ushbu kurs ishi kirish, ikki bob, har bir bobda ikkitadan qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1.bob. Savod o'rgatish davri yozuv darslari tarixidan

O'qish va yozish kishining nutg' faoliyati turi bo'lib, o'quv va yozuv malakasi ham nutq faoliyatining boshqa turlari bo'lgan og'zaki hikoya qilish, boshqalar nutqini eshitib idrok etish, ichki nutq bilan uzviy bog'liq holda

shakllanadi malakaning shakllanishi ushuni ma'lum bir faoliyati ko'p marta takrorlanishi talab etiladi. Shunday ekan, savod o'rgatish jarayonida bola juda ko'p o'qishi va yozishi zarur.

Bizning yozuvimiz tovush yozuvi xisoblanadi, o'qishda grafik belgilar (xarflar)ni tovushga maylantirish bosqishi, yozuvda esa aksincha, tovushning xarfga aylantirish bosqishi bo'lib, bu o'qish va yozishni ancha qiyinlashtiradi, so'zni tovush-xarf tomonidan taxlil qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Savod o'rgatish metodikasi o'quvchilarga tovushlar haqida ma'lumot berishda, o'zbek tilining fonetik tizimi xususiyatlarini hisobga oladi. Savod o'rgatish ushuni so'z ma'nolarini farqlashga xizmat qiladigan tovushlarni, ya'ni fonemalarni bilishi zarur.

Maktabda savod analitik-sintetik tovush metodi bilan o'rgatiladi. O'quvchilar so'zni analiz qilish bilan kerakli tovushni ajratadilar, ularni taxlil qiladilar, sintezlaydilar, shu asosda xarfni va bo'g'inlab o'qish jarayonini o'zlashtiradilar.

Bunda til grafik sistemasini, tovushlarni yozuvda belgilash xususiyatlarini xisobga olish zarur.

Savod o'rgatishda bo'g'inlab o'qitish tamoyili qabul qilingan. Shuning uchun o'qishga o'rgatishning birinchi kunlaridayoq o'quvchilarni bo'g'inlab o'qish mo'ljallab o'qishga o'rgatiladi. Savod o'rgatishda o'zbek alfavitidagi xarflar to'rt variantda (bosma va yozma, bosh va kishik xarflar) ishlatishini xam xisobga olish zarur. O'qish yozish murakkab psixo-fiziologik jarayon hisoblanadi. O'qish va yozishni endigina urganayotgan bola barsga elementlar harakatlarini yaxlit bir xarakatga aylantira olmaydi bola ushuni har bir element mustaqil harakat ba'zan juda qiyin psixologik jarayon bulib irodani. diqatni aqlnigina emas balki jismoniy harakatni talab qiladi.

O'qishga o'rgatishda tovushlarni qo'shish qiyin harakat hisoblanadi. Kup o'quvchilar tovushlarni aloxida talaffuz qiladilar ammo bug'in hosil qila olmaydilar. Bu qiyinchilikni bartaraf qilish ushuni nutq organlarining rivojlanish xususiyatlariga e'tibor berish zarur.

Dastlabki yozuv jarayonida ko'pgina mustaqil faoliyatni bajaradilar : rushkani to'g'ri ushlash daftarni to'g'ri qo'yish. harfni yozishga o'rganish bilan uning shaklini, elementlarini, chiziqlarini hisobga olib daftar qatoriga singdirishni qator bo'ylab ruchkani qanday harakat qildirishni esda saqlashni: So'zni yozganda harfni harfga qanday qo'shishni bilishi va so'zning bir qatorga sig'ish-sig'ishmasligini hisoblashi ko'zni daftarga yaqinlashtirmasdan to'g'ri o'tirishni esda tutishi lozimdir. Eski maktabda o'qish bilan yozish bir vaqtda o'rganilmagan avval faqat o'qish o'rgatilgan . O'qish hatto (bo'g'in) usuli bilan yozish bir vaqtda o'rganilmagan. O'qishga o'rgatishning «xijoi qadimiy»deb atalgan. Bu usuli asrlar davomida hesh qanday o'zgarishsiz davom etib klgan.

Turkistonda ochilgan rus-tuzem maktablari savod o'rgatishda ma'lum darajada ijobiy rol o'ynadi. Rus-tuzem maktablarining o'zbek sinflarida o'zbekcha xat -savod o'rgatish metodi 1900-yildan boshlab asta-sekin isloh qilindi: xijo metodidan tovush metodiga o'tildi. 1900-yillardan rus-tuzem maktabi o'zbeksha snflarning muallimlari tovush metodi asosida tuzilgan tatarsha alifbedan foydalanganlar. Bu kitobning tili va mazmuni o'zbek sinflariga mos kelmasdi. 1902-yilda Saidrasul Saidazizovning tovush metodi talabiga muvofiq tuzilgan ona tili alifbesi «Ustodi avval» nashr etildi. «Ustodi avval» nashr qilingandan keyin o'zbeksha xat-savod o'rgatishda yangi davr boshlandi.Tovush metodi savod o'rgatishning eski usulidan tamomila farq qilib, o'qitishni osonlashtirdi,ta'limni bola tushunadigan, anglaydigan ta'limga, aktiv ta'limga aylantirdi.

«Ustodi avval» ush bo'limdan iborat: birinshi bo'lim hozirgi termin bilan aytganimizda, alifbe davridir. Avtor bu bo'limda arab alfavitidagi harflarni alfavit tartibida emas, balki harf orqali ifodalangan tovushning talaffuzi oson-qiyinligini,harflarning yozilishi sodda yoki murakkabligini e'tiborga olgan. Avtor bu harfning yozuvda bir necha xil shakllar kelishi xat-savod o'rgatishni qiyinlashtirishini hisobga olgan: alifbe davrining boshida deyarli har doim bir hil shaklda qo'llanadigan harflarni bergan, shakli yozilish o'rniga qarab turlicha bo'ladigan harflarning so'z boshida,so'z o'rtasida,so'z oxirida va nihoyat, alohida yozilish shaklini berib,ularga mos misollar keltirilgan. Masalan, q harfini tanitish

ushun qor,uyqu,oq so'zlarini, g' harfini tanishtirish ushun g'or, tog', so'zlarini tanlagan. Muallif soddadan murakkabga tamoiliga rioya qilib, alifbe davrini sekin murakkablashtira borgan. Kitobning alifbe qismiga,asosan o'zbek tilining lug'at sostavidagi so'zlardan tanlab olgan.

Yozishni o'rgatishda va xusnixat malakalarining xosil qilinishida «Muradod» kitobidan foydalanilgan. Bu kitobchada xar uchala mashq turi, ba'zi nashrlarda insho namunalari berilgan. Rus tuzem maktablarida o'qish va yozishni o'rgatish , odatda bir bir vaqtda boshlanib, bir-biriga bog'lab olib borilgan; xar kuni avval o'qish, keyin yozuv darsi bo'lgan. O'qish yozish onglilik tamoili asosida o'rgatilgan, bolalar kaysi tovush, bo'g'in , so'z yoki gapni o'qiyotgan yoki yozayotganini aniq tasavvur qilgan. Manosiga tushingan, arabcha xarflarning yolg'iz shaklini, so'zda qo'llanish o'rniga qarab shaklini yoxud biror xarfning elementini yozayotganini ongli ravshda bilgan.

Savod o'rgatishda analitik-sintetik tovush metodiga K.D. Ushenskiy asos solgan va russiya maktablarining boshlang'ish sinflariga joriy etib rivojlantirilgan. Bu metod asrimizning boshlarida rus -tuzem maktablari orqali Turkistonda yangi osxilgan maktablarga kirib kela boshlagan. Shu metod asosida reja va dasturlar, darslik va qo'llanmalar nashr etilib bolalarning xat-savodi chiqarila boshlagan.

Bu metodning an'anaviy tamoillari quyidagilardan iborat:

- 1) Savod o'rgatishda analitik- sintetik tovush metodi shaxsni shakllantirish maqsadiga ko'ra, ta'limiy va rivojlantiruvchi xarakterda bo'ladi, u analitik-sintetik mashqlar sistemasi orqali, nutqiy mashqlar orqali aqlning o'sishini ta'minlaydi o'quvshilarning yosh xususiyatlarini hisobga oladi.

- 2).Analitik-sintetik tovush metodi tashkiliy tomondan birinchidan, alifbogacha bo'lgan (tayyorlov) davr, alifbe davri va alifbedan so'nggi davrga bo'linadi; ikkinchidan, yozuvga o'rgatish o'qishga o'rgatish bilan bir vaqtda – paralel holda boradi.

- 3). Analitik – sintetik tovush metodi psixolog – linvistik nuqtai – nazardan: birinchidan savod o'rgatish bolalarning jonli kuzatuvidan aktiv

egallagan nutq malakasiga asoslanadi: ikkinchidan, savod o'rgatish tovush asos qilib olinadi, bunda tovushni ajratishga, uni analiz va sintez qilishga, tovushlar artikulyatsiyasiga, bolalarning fonematik eshitishini rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi, ushinchidan o'qish birligi sifatida bo'g'in olinadi; bunda bo'g'in ustida ishlash (bo'g'in, bo'g'inlar jadvalini o'qish) ga katta e'tibor beriladi.

1.1.Savod o'rgatish davrida mashg'ulotlar tizimi.

Savod o'rgatishda dastlabki suhbat mashqlari quyidagi tartibda olib boriladi:

1. Rasm ustida suhbat.

2. Suxbatdan analizga mos gap ajratib olish.
3. Gapni so'zlarga ajratish.
4. So'zni bo'g'inlarga ajratish.
5. Bo'g'indan tovushni ajratish.
6. Tovush talaffuzini tushuntirish.
7. O'rganilgan tovushni turli so'zlardan toptirish.
8. O'rganilgan yangi tovush shakli-harf bilan tanishtirish.
9. Kesma xarflardan bo'g'in va so'z tuzdirish.

Savod o'rgatish davrining dastlabki birinshi haftasi o'quvchilarni savod o'rgatishga tayyorlash ushuni ajratiladi, shuning ushuni bu davrni alifbegasha bo'lgan deb ataladi. Savod o'rgatishning bu davrdagi mashg'ulotlar alifbe kitobining 3-6 betlaridagi rasmlar asosida yuqoridagi metodlar asosida suhbat uyushtiriladi, o'z nutqiga ongli munosabat tarkib toptiriladi.

«Alifbe» ning 2-3 betlarida turli millat bolalari – «Do'stlik» mavzuidagi rasmga qarab gap tuzilgan bo'lsa, 4-betda «Biz quvnok bolalar» nomli rasm berilgan. Bolalar rasmda ifodalanganlar asosida gap tuzadilar. 5-betda «O'yin» temasiga doir rasmlar berilgan. Bu rasmlardan o'zlari qiziqqan narsalarni tomosha qiladilar. Predmetning nomlarini aytadilar. Suxbatlarning jonli, ko'rgazmali bo'lishiga alohida e'tibor berish zarur. Suhbat ushuni faqat darslikdagi rasmlarning o'zi kifoya qilmaydi, balki uning mazmunini to'ldiruvshi boshqa rasmlardan yoki predmetlarning o'zidan namuna ko'rsatish o'quvshilarning yana qiziqishini orttiradi.

Masalan, kitobning 6-betida «Bizning oila» temasida rasm berilgan. Bunda o'qituvshi o'quvshilarning o'z oilalari misolida gap tuzdirish mumkin. O'quvshilar tomonidan gap tuzdirilganda, ularning nutqiga, tovushlarning qanday talaffuz qilishlariga ovozlarini boshqara olishlariga ham e'tibor berish lozim.

Alifbegacha bo'lgan davrda o'qituvchi bolalarni dastlab, maktab hayoti, uning ichki tartib qoidalari bilan tanishtiradi, o'quvchilar maktabda, darsda, tanaffuz vaqtida maktabdan tashqari vaqtda o'zlarini qanday tutishlari lozimligi

o'rgatiladi, shuningdek maktab va oilada kundalik rejimga ko'nikma hosil qilib, unga odatlantirila boriladi.

Bu davrda o'qituvchilar o'quvshilar kollektivini tashkil etishi va har bir o'quvshi shu kollektivning a'zosi ekanligini ular ongiga singdirish, bolalarga kollektiv bo'lib ishlashni asosiy tartib qoidalarini o'rgatishi kabi vazifani bajaradilar: o'quvshilarda dars jarayonida partada to'g'ri o'tirish, savol yoki javob berishdan oldin qo'l ko'tarish, hammaga eshitarli qilib, shoshmasdan, tutilmasdan gapirish kabi, kitob va daftarlarni, shuningdek, sinfdagi jihozlarni ehtiyot qilib saqlash, tanaffuzga shiqish va darsga kirishda shopmaslik kabi ko'nikmalarni hosil qila boradi.

Bolalar maktab binosi, tevarak atrof bilan tanishtiriladi. Ular o'qituvshining aytganlarini diqqat bilan tinglash, topshiriqlarini o'z vaqtida bajarish, savolga javob qaytarish va savol berishga, o'rtoqlarining javobini tinglashga odatlantiriladi.

Ayniqsa, o'quvshilarni o'z vazifalarini tushunib, uning o'z vaqtida to'liq tushunishga odatlanishi, har bir o'quvchiga individual yondashib, ularning o'ziga xos xususiyatlarini savod olishga qanchalik tayyor ekanligini vaqtida aniqlab olish savod o'rgatish darslarining to'g'ri uyushtirilishiga yordam beradi.

O'kituvchi har bir bolaning eshituv, ko'ruv organlaridagi kamchilik, diqqatning tarqoq emasligini sinchiklab o'rganib, ko'ruv va eshituv quvvati zaifroq, shuningdek past bo'yli o'quvchilarni oldingi partalarga o'tqazadi.

O'quvchilar gap, so'z, bo'g'in, tovush bilan amaliy tanishtiriladi. Bolalarning eshitishi va so'zlash qobiliyatini mantiqiy fikrlashni o'stirishga doir; shuningdek o'qituvchining ovozigga ergashib she'rlar yodlash, hikoyachalar mazmunini aytib berish, rollarga bo'lib o'kish kabi mashqlar o'tkaziladi.

1.2. Savod o'rgatish davrida yozuvga tayyorlash.

Birinchi sinf o'kuvchilari uchun harf va harflarni to'g'ri qo'shib yozish qiyin va muhim mashg'ulot hisoblanadi. Alifbegacha bo'lgan davrda bolalar yozuviga tayyorlaydigan mashqlarni bajaradilar. Avvalo bolalarni yozuv mashqni bajarish vaqtida partada tug'ri va erkin o'tirishga, ruchkani to'g'ri ushlashga, daftarni parta ustiga normadagi qiyalikda qo'yishga o'rgatish zarur.

Buning ushuni «Yozganda to'g'ri o'tir» nomli rasmdan foydalaniladi. «Ish daftari» ga yozishdan oldin o'qituvchi o'quvchilarni shu daftar shiziqlari bilan tanishtiradi va unga harflarni to'g'ri yozishga, harflar oralig'ini to'g'ri shamalashga o'rgatadi.

Savod o'rgatishning dastlabki davridagi 6-7 yoshli bolaning yosh xususiyatni uning diqqatini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Bu davrda o'quvshilar uzoq vaqt bir xil ishsizlik darajasi bilan shug'ullana olmaydilar. Shuning ushuni ishsizlik darajasi turi har 10-15 minutda boshqasi bilan almashtirilib turilishi lozim. Shu bilan birga, har bir bosqishida o'tkaziladigan mashg'ulotlar dars rejasi va maqsadga buysindirilgan bo'lishi lozim. Darsda ishsizlik darajasi shunday uyushtirilishi kerakki, hikoya qilish va suhbatlar o'quvchining aktiv harakati, shu jismoniy mashqlar bilan ham almashtirilib turiladi.

Alifbedagi rasmlar asosida gapni so'zlarga bo'lish yuzasidan olib borilgan ishdan so'ng o'quvchilarga ertak aytiriladi. So'ng ular shu ertak personajlarining rasmini shizadilar. Keyin o'qituvshi shu ertakdan yoki suhbat asosida tuzilgan qisqa bir gapni aytib, bolalardan shu gapda neshta so'z borligini so'raydi; bolalar shu gapdagi so'zlar sonini aytadilar. O'qituvchi har bir so'zni sinf doskasida tug'ri shiziq bilan belgilab boradi. (____). Masalan, o'qituvshi Paxta oshildi gapini aytadi, o'quvshilar bu gap ikki so'zdan tuzilganligini aytadilar. O'qituvshi doskaga shu gap sxemasini shizadi (____). Bunday mashqlar o'qituvshi yordamida bir nesha bor o'tkazilgach xuddi shunday mashqni o'quvchilarning o'zlariga doska va daftarlarida mustaqil ishlatadilar.

Yozuv darsida o'qituvchining tushuntirishi o'quvchilarning barmoq harakati yuzasidan bajaradigan mashqlar bilan almashtirib turiladi, ya'ni o'quvshilar ruchka ushlagan qo'llaridagi barmoqlari qanday ko'tarilishi va pastga tushirilishlari ko'rsatiladi. O'quvchilar yozadilar, o'qituvchi bolalar yozuvini kuzatib turadi. Ularda yozuvdan charchash holati sezilsa, qo'l va barmoqlarni harakatga keltiruvchi mashqlar bajartiriladi. So'ng yana davom

ettiriladi. Alifbegacha bo'lgan davrda mashg'ulotlar 45 minut emas 35 minutni tashkil etadi.

2.bob. Savod o'rgatishda tayyorgarlik davri va nitq o'stirish.

Savod o'rgatish davri sentyabr oyidan to dekabr oyining oxirigacha bo'lgan muddatni, ya'ni 2 o'quv shoragini qamrab oladi. Savodga o'rgatish jarayoni tayyorgarlik va alifbe davridan tashkil topadi. Tayyorgarlik va alifbe davrida ta'lim savodga o'rgatishning taxlil tarkib (analitik, sintetik) tovush usulida amalga oshiriladi. Savodga o'rgatishning taxlil tarkib usuliga ko'ra matndan gap, gapdan so'z, so'zdan bo'g'in va tovush, yoki aksincha, tovush – bo'g'in – so'z – gap – matn uzviy aloqada butundan bo'lakka, bo'lakdan butunga qarab taxlil va tarkib kilinadi. Bu esa, o'quvchi tafakkur faoliyatini onglilik, tushunarlilik, mantikeylik, ilmiylik kabi didaktik mezonlar asosida rivojlantirish imkoniyatini vujudga keltiradi.

Boshlang'ich ta'limning ilk savodga o'rgatish davridanok o'quvshi nutqini yangi so'zlar hisobiga boyitishga alohida e'tibor qaratiladi.

«Alifbe» darsligida berilgan yangi so'zlar matn, hikoyacha va she'rlardan foydalanib, o'quvchilarni so'z ma'nosi bilan atroflicha tanishtirish, she'riy va nasriy matnlarni yodlatish, qayta hikoyalashga e'tibor beriladi. SHuningdek, sinfdan tashkari o'qish darslarida o'quvshini bolalar adabiyoti namunalari bilan tanishtirib borish, ularni mustaqil o'qishga, ota-onalar va uqituvchilar yordamida badiiy o'qishga qiziqtirish, o'quvshi nutqini boyitish va rivojlantirishga yordam beradi.

O'quvchini darslik va qo'shimcha ko'rgazmali illustrativ materiallar (rasmlar, filmaskop, buyumlarining asl nusxasi va darslikdagi rasm – illustratsiyalar) vositasida maktab ta'limiga moslashtirishga, o'quvshi qo'lini yozuvga tayyorlash, gapdan so'z, bo'g'in va tovushni turli xarakatlar (oyok, ko'l xarakati, o'yin elementlari) asosida o'rgatishga e'tibor beriladi.

Bu davrda o'quvchi, asosan, quyidagi tushincha, malaka va ko'nikmalarni egallaydilar:

1.O'quv predmeti mazmuni asosida tashkil etiladigan dars haqidagi amaliy ko'nikma; darsning muayyan vaqt oralig'ida davom etishi; dars jarayonida o'quvchining tutgan o'rni haqida tushinsha;

2.rasm mazmunini anglash, rasm mazmuni asosida mantiqiy izchillikka ega bo'lgan matn tuzish;

3.darslik bilan ishlash, og'zaki nutq xaqida tushincha;

4.Yozma nutq, gap xaqida tushincha;

5.So'z va bo'g'in haqida tushincha;

6.Unli va undosh tovush haqida tushincha;

7.Maktab partasida to'g'ri o'tirish;

8.Darslikdan foydalanishga oid ilk o'quv ko'nikmalarini shakllantirish;

Yozuv darslari o'qish darslari bilan uzviy bog'langan holda, biri ikkinchisiga bevosita aloqadorlikda olib boriladi. Yozuv darslarining ilk bosqichida o'quvshida yozuv qoidalari gigienasiga oid ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. O'quvchini ruchkani to'g'ri ushlashga, yozuv xolatida bosh va elkani mutanosib tutishga, daftar qiyaligini to'g'ri shayllashga o'rgatiladi (daftar parta ustiga 65⁰ qiyalikda qo'yiladi).

qo'lni yozuvga tayyorlash, qo'l panjalari va mayda muskullar harakatini rivojlantirishga oid boshlang'ich yozuv mashg'ulotlari va jismoniy qo'l harakati mashg'ulotlari o'tkaziladi.

Tayyorgarlik davri yozuv darslarida o'quvchi yozuv daftaridan to'g'ri foydalanish, yozuv mashg'ulotlari gigienasiga oid ilk ko'nikma va malakalarni egallaydi.

Bu davrda «Alifbe» darsligi va yozuv daftarida ko'rsatilgan yozuv yo'li bo'ylab shamalash mashqlari (bir xil masofada nuqtalar qo'yish, ilgakshalar, tayoqshalar, bayroqshalar shizish kabilar) asosida mashg'ulot o'tkaziladi.

Tayyorgarlik davri yozuv darslarida o'quvchi egallashi lozim bo'lgan tushinsha va ko'nikmalar quyidagilardan iborat.

1.Yozuv daftari bilan o'quvshi oralig'ida muayyan masofani saqlash;

- 2.yozuv qurollaridan to'g'ri foydalanish;
- 3.parta ustida daftarni to'g'ri qo'yish;
- 4.yozayotganda gavgani to'g'ri tutish va tirsaklarni tugri xarakat qildirish;
- 5.yozuv elementlarini to'g'ri idrok etish (qaerdan boshlash, qaerga to'xtash, o'ngga, chapga burilish, yoza boshlash va x.k)

Alifbegacha (tayyorgarlik) davrida yuqoridagi tushincha va ko'nikmalarning shakllantirilishi darsni yanada samarali olib borish uchun imkoniyat yaratadi.

O'qishga o'rgatish

Unli va undosh tovushlar, ularning talaffuziga xos farqlanish haqida ma'lumot berish.

Harf va tovush munosabatiga oid tushinchalar bilan o'quvchini tanishtirish.

Kesma harf va bo'g'inlar asosida so'z hosil qilish, tuzilgan so'zlarni to'g'ri o'qish.

So'zlarni avval bo'g'inlab, so'ngra bo'g'inlab ravon o'qishga o'rgatish.

Tinish belgilariga rioya qilib, ifodali o'qishga o'rgatish.

O'qish jarayonida amal qilinishi lozim bo'lgan gigiena qoidalariga rioya qilishga o'rgatish.

Yozuvga o'rgatish.

Unli va undosh harflarning bosh va kishik shakllarini yozish. O'quvshida yozuv sifatini, ya'ni:

- 1.harflarni to'g'ri bog'lab yozish;
- 2.harflarni 65⁰ qiyalikda yozish;
- 3.har bir qatorda harflarning bir xil balandlikda bo'lishiga erishish;
- 4.harf unsurlari, harflar va so'zlar orasidagi masofalarni bir xilda saqlash kabilarni shakllantirish.

Har bir harf yoki harflarning bog'lanishi, og'zaki yoki xattaxtada tushintirish orqali, qo'lni qaerga qo'yish, qaerda bu xarakatni burish yoki uzish kerakligi, xarflarning yozuv shizig'i bo'ylab joylashishi xaqida nazariy va amaliy tushinsha va malakalarni rivojlantirish.

Avval nuqtalar bilan ifodalangan harflar ustidan ko'lni yurg'izib, so'ng namunaga qarab yozishga o'rgatish.

Harflarning shaklini tasavvur orqali yozdirish asosida yozuvga o'rgatish.

Bir va undan ortiq bo'g'inlardan tashkil topgan talaffuzi va yozilishi bir xil so'zlarni, 2 – 3 so'zdan tuzilgan gaplarni eshitib yozish.

So'z va gapni to'g'ri yozish. (Gapning birinshi so'zini bosh harf bilan yozish, so'ngiga tinish belgisi (nuqta)ni qo'yish).

Eshituv va kuruv xotirasiga asoslangan kishik diktantlar yozish.

O'qish ko'nikmalari

O'quv yilining birinshi yarmida 20 –25 so'zli matnni to'g'ri ongli, bo'g'inlab o'qish;

Bir bo'g'inli va sodda tuzilishdagi ikki bo'g'inli so'zlarni yaxlit o'qish;

Notanish matnni o'qish tezligi, 20- 25 so'z.

2.1.Bog'lanishli nutq ustida ishlash usullari

Og'zaki nutq madaniyatini egallash, unga xos xususiyatlarni bilish; o'quvshidan gap va nutqni grammatik, orfografik, stilistik jihatdan adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda tuzishga o'rgatish. Og'zaki nutqni rivojlantirish ushun o'quvchi lug'at boyligini izchil oshirib borish, gapning sintaktik tuzilishiga oid bilimlarni amaliy jihatdan egallash, nutq birliklari o'rtasidagi mantiqiy uyg'unlikni ta'minlashga oid malakalarni rivojlantirish, yangi harf – tovushga bog'lab tavsiya etilgan so'zlar ma'nosini o'quvchiga to'liq anglashiga erishish, rasm asosida o'zaro bog'langan kichik xikoyachalar tuzishga o'rgatish.

O'quvshining bog'lanishli nutqini o'stirishga oid ta'limiy ishlarni amalga oshirish.

- 1.Rasmlar asosida hikoya tuzish;
- 2.Rasm mazmuniga mos sarlavxa topish;
- 3.«Alifbe» darsligi va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'rganilgan o'quv materiallarini qayta xikoyalash;
- 4.Savollarga to'liq va burro javob berish;
- 5.Adabiy nutq me'yorlarini amaliy jihatdan o'rgatishga e'tibor qaratish (bu soxada o'qituvchi nutqi o'quvchi namuna bo'lishi kerak);
- 6.Topishmoq, maqol, hikmatli so'zlar ustida ishlash (darslik materiallari va sinfdan tashqari o'qish ushun tanlangan o'quv materiallari asosida);
- 7.Kichik guruhlar bilan ishlashda o'quvchilarni aqliy – intellektual jihatdan teng guruhlariga taqsimlash, guruhlariga bog'lanishli matn tuzishga oid muammoli topshiriqlar berish, guruhlar javobini sharxlash asosida g'olib guruhni rag'batlantirish;
- 8.YAkka tartibdagi (individual) ishlarda o'quvshida o'z nutqini rivojlantirib borishga ishtiyoq uyg'otish (lug'at daftari, yangi she'r, hikoya, ertak mutollasi asosida);
- 9.So'zlarni yaxlit, gaplarga ifoda mazmuniga (darak, buyuruq, so'roq) mos ohangda o'qishga erishish qaxramon xarakterini ohang orqali ifodalash;

10. Matn ishida ko'llanilgan tinish belgilariga rioya qilish malakasini shakllantirish;

11. 4 va 8 misrali she'rlarni yod oldirish

Lug'at ustida ishlash. O'quvchi nutqini boyitish, ular nutqida kam qo'llaniladigan so'zlarni alohida yozdirib borish, dars jarayonida lug'at daftaridagi so'zlarning ishlatilishiga e'tibor berish.

«O'zbekiston – Vatanim manim» bo'limida bolalarga barsha quvonch – shodliklar baxsh etuvshi ona maskanimiz – O'zbekiston ekani haqida dastlabki tushinchalar beriladi. Tanlangan asarlar o'quvchida ona vatan oldidagi burch va ma'suliyatni anglashlarini ta'minlaydi. Vatanga muxabbat xissini tarbiyalaydi.

Biz – buyuklar avlodi. (11 soat)

«Biz – buyuklar avlodi» bo'limida halqimiz ichidan etishib chiqqan ulug' allomalar hayotiga bag'ishlangan asarlar misolida milliy qadriyatlarimiz yuzasidan tushuncha beriladi. O'quvchi xotirasiz kelajakning bo'lmasligi haqida elementar tasavvurga ega bo'ladi.

Ko'klam – yashnaydi olam. (9 soat)

«Ko'klam – yashnaydi olam» bo'limida fasllar kelinshagi, yashash – yasharish faslining o'ziga xos hususiyatlari, inson hayoti va butun tabiatga ta'siri haqida hikoya qilingan asarlar o'rin olgan.

Ilm – aql shirog'i. (9 soat)

«Ilm – aql shirog'i» bo'limiga kiritilgan badiiy asarlarni o'kish bolaga kitobning inson hayotidagi ahamiyati, ilm olish aqliy tafakkur, ma'naviy kamolot taraqqiyotiga ta'sir etishi haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

Halq – o'giti baxt kaliti. (9 soat)

«Xalq – o'giti baxt kaliti» bo'limiga bola kalbiga ona allasi bilan kirib kelgan og'zaki ijod namunalari kiritilgan bo'lib, ezgulik, tug'ri suzlik, sofdillik, nafosat, do'stlik, o'rtoqlik, axllik haqida tasavvur qiladi.

Odob – insonga husn.

«Odob – insonga husn» bo'limiga kiritilgan asarlar faxm farosat, xayo va odoblilik, qanoat kabilar insonning ma'naviy – axloqiy qiyofasini belgilovshi asosiy omillar ekani yuzasidan ilk tushunshalar berishga mo'ljallangan.

Mehnatning – tagi rohat. (10 soat)

«Mehnatning – tagi rohat» bo'limida mehnat tufayli inson baxtga erishishi, ona urning insonlar mehnati tufayli boylik manbaiga aylanishi haqidagi tushinchalari tarkib toptiriladi.

Tovushlar va harflar. Unli tovushlar va harflar; a va o i va u, o va u unli harflarning talaffuzi va yozilishi. Unlilarning bo'g'in hosil qilishi. Undosh tovushlar va ularni ifodalovshi harflar. Ayrim undosh tovushlarning talaffuzi va yozilishi (d-t, b-p); talaffuzda tushib qoladigan undoshlar. Harf birikmalari: sh,sh,ng. Alifbo: Harflarning nomi. Harflarning bosh va kishik shakllari. So'zlarni alifbo tartibida xizmat qilishi.

Tutiqlik belgisi (,), uning ishlata olishini, so'zdagi vazifasi, o'zidan oldingi unlining sho'zik aytilishiga, oldingi bo'g'inni keyingi bo'g'indan ajratib talaffuz qilinishiga xizmat qilishi.

Bo'g'in. So'zlarni bo'g'inga bo'lish. Bo'g'in ko'chirilishi, ketma – ket kelgan undoshli so'zlarning bir yo'ldan keyingi yo'lga ko'chirilishi. Harf birikmasi (sh,sh,ng,) qatnashgan so'zlarning bir yo'ldan ikkinchi yo'lga ko'chirilishi. Tutiqlik belgili so'zlarning bir yo'ldan ikkinchi yo'lga ko'chirilishi.

Shaxs va narsalar nomini bildirgan so'zlar, ularning kim?, nima?, kimlar?, nimalar? So'roqlariga javob bo'lishi, ismlarning bosh harf bilan yozilishi, hayvonlarga atab qo'yilgan nomlarning bosh harf bilan yozilishi, joy nomlarining bosh harf bilan yozilishi.

Harakatni bildirgan so'zlar, nima qildi? nima qilyapti? nima qiladi? Soroqlariga javob bo'lishi. Belgini bildirgan so'zlar, ularning qanday? qanaqa? Savollariga javob bo'lishi.

Sanoqni bildirgan so'zlar. Ular nechta?, nechanshi?, necha?, qancha? So'roqlariga javob bo'lishi. nechanshi? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarning yozilishi.

Darslarda berilgan lug'atchadan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.

Nutq va gap (12 soat)

Nutq. Nutqning og'zaki va yozma shakllari.

Matn. Matnning gaplardan tuzilishi.

Gap. Gapning kim yoki nima haqida aytilganini bildirgan so'zni aniqlash.

Gapning bosh harf bilan yozishni. Gapning oxiriga nuqta, soroq, undov belgilarining quyilishi. Gapning tugal fikr bildirishi va shunga xos ohang bilan aytilishi. Rasmlarga qarab gap tuzish va yozish. Savol – javob gaplar. Savol – javob tuzilishidagi matnlarning yozilishi. Nutq odobi.

Sinfdan tashqari o'qish yuzasidan ko'nikma va malakalar

Yil davomida o'tilganlarni takrorlash (5 soat)

Husnixat

Yozuvga oid malakalarni; yozuv jarayonida partada to'g'ri o'tirish, daftarni 65 qiyalikda qo'yish, rushkani to'g'ri ushlash malakalarini mustaxkamlash. Yozuv shiziqlarini farqlash, harflarning qiyaligi, ulanishi hamda so'zlar orasini bir xil tenglikda shamalash kabi shiroyli yozuv talablarini mashq qilish malakalarini shakllantirish.

Kichik va bosh harflarni savod o'rgatish jarayonidagi kabi tartibda yozishni mashq qilish.

2.2. Savod o'rgatish jarayonida nutqqa o'rgatish

Nutqni rivojlantirish metodikasining asosiy mazmuni bolalarda og'zaki nutqni, uning atrofdagilar bilan nutqiy muloqoti, ko'nikmalarini shakllantirishdir. Nutqiy rivojlantirish metodikasi quyidagi asosiy savollarga javob topish imkonini beradi: nimani o'qitish (bolalarda qanday nutqiy ko'nikmani tarbiyalash), qanday o'qitish (bolalar nutqini shakllantirishda qanday sharoitlarda qaysi metod va usullardan foydalanish lozim), nega aynan shunday o'qitish zarur (nutqni rivojlantirishning taklif etilayotgan usullari nazariya va amaliyotning qaysi ma'lumotlariga asoslanmokda).

Nutqni rivojlantirish metodikasi nazariyasida bolalarga ona tilini o'rgatishning obyektiv xususiyatlari aks ettirilgan nutqni rivojlantirish metodikasi sohasida O'zbekiston Respublikasida va xorijda yaratilgan va hozirda mavjud bo'lgan barcha ijobiy natijalar umumlashtirilgan.

Nutqni rivojlantirish metodikasi nazariyasida metodik amaliyot bilan birgalikda rivojlanmokda. Ayrim metodik qoidalarining yashovchanligi amaliyotida tekshirib ko'rilmokda, amaliyotning o'zi fan oldiga hali o'z yechimini topmagan muhim maqsadlarni qo'ymoqda.

Metodik nazariyani bilmaydigan tarbiyachi faqat o'z farazlaridan kelib chiqib yoki boshqalarning tajribalaridan nusxa ko'chirgan holda bolalarni ko'r-ko'rona tarbiyalaydi. U ko'p narsani nazardan qochiradi, chunki rang-barang metodlar va usullarni bilmaydi.

Nutqni rivojlantirish metodikasi psixolingvistikaning asosiy qoidalari asosida quriladi Uning til inson faoliyatining barcha sohalarida muloqot vositasi bo'lib xizmat qiladi, degan asosiy qoidasi nutqni rivojlantirish metodikasida dasturilamal bo'lib hisoblanadi. Shu bois nutqni rivojlantirishga oid bilimlar va qobiliyatlar bilan qurollantirishga qaratilgandir.

Nutqni rivojlantirish - bolaning yakka tartibdagi psixologik rivojlanishida markaziy o'rin tutadigan ijtimoiy tarixiy tajribani o'zlashtirishdagi o'ta murakkab, ko'p omilli jarayondir. Bu ijtimoiy jarayon emas. Bolalar nutqini rivojlantirishga doir ishlarni o'zida bolalarga nisbatan qadriyatli munosabatlarni shakllantirgan yaxshi nazariy hamda amaliy tajribaga ega bo'lgan mutaxassis tashkil qilishi va amalga oshirishi lozim.

Ushbu maqsadni amalga oshirish quyidagi vazifalarni hal etishni ko'zda tutadi:

- turli yosh bosqichlarida bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish xususiyatlarini ko'ra olish va tushunish qobiliyatini shakllantirish;
- nafaqat bola yoshini, balki uning o'ziga xos xususiyatlarini ham hisobga olgan holda uning nutqiga ta'sir ko'rsatish va u bilan hamkorlik qilishning eng samarali yo'lini to'g'ri tanlashni o'rgatish hamda olingan natijalarni tahlil qilish;
- bolalar nutqining turli qirralarini rivojlantirishning aniq metodlari va usullariga doir bilimlar hamda ularni didaktik nutqiy muloqot vaziyatlarida qo'llash, o'zlashtirishini ta'minlash;
- o'quv metodik qo'llanmalarni tanqidiy tahlil qilishga tayangan holda maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar nutqiga ta'sir ko'rsatish borasida o'zining original usullari va yo'llarini yaratishga intilishni rag'batlantirish;
- kursni o'rganish jarayonida talabalar nutqini rivojlantirish metodikasining nazariy asoslari va bolalarga ona tilini o'qitishning psixolingvistik asoslari kabi tushunchalarni o'zlashtirishlari darkor;
- zamonaviy o'zbek tilini ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish xususiyatlari, ona tilini o'qitishning psixolingvistik, lingvodidaktik asoslarini bilish asosida ularni amaliyotda qo'llash metodikasi asoslarini o'zlashtirish;
- o'qishda va nutqda mantiqiy hamda emosional obrazli ifodalilikni o'rganish qobiliyati va ko'nikmalarini egallash, badiiy asarni tahlil qila olish va uni ijro etishni bilish bolalarda lug'at boyligini rivojlantirish, talaffuz ko'nikmalarini grammatik jihatdan to'g'ri nutqni shakllantirish maqsadida ularning nutqiy faoliyatini yo'lga qo'yish hamda bolalarning bir-birlari bilan hamda boshqa shaxslar bilan muloqotlarini tashkil etish ko'nikmalarini o'zlashtirish.

Til aqliy faoliyatni rejalashtirish imkonini yaratadi. Bu jarayonda tilning muhim vazifasi insonning xulq-atvorini boshqarish vazifasi paydo bo'ladi.

Maktabda o'qitish elementar o'qish va yozishga o'rgatishdan boshlanadi. "Alifbe" ga asoslangan holda qisqa muddatda o'quvchilar o'qishga, yozishga o'rgatiladi, so'ng o'qish va yozish ko'nikmasi takomillashtiriladi, bora— bora malakaga aylantiriladi ,

O'qish va yozish malakasi nutqa oid malaka. O'qish va yozish malakasi nutq faoliyatining- boshqa turlari bilan ham bog'liq. Malakaning shakllanishi uchun bir faoliyat bir necha marta takrorlanishi mumkin .

O'zbek tili yozuvi – tovush yozuvi.Yozuvda o'quvchi tovushni harfga ,o'qishda esa tovushga aylantirishdek murakkab aqliy faoliyatni bajaradi .Bu faoliyat doimiy ravishda yuz berishini nazarda tutib, o'qish va yozish parallel olib boriladi.

O'zbek tili yozuvi – fonematik yozuv. O'zbek tili yozuvi uchun 1993- yil lotin garfikasi asos qilib olindi. Nutqning har tovushi uchun unga mos shakl qabul qilindi.

O'qituvchi savod o'rgatish jarayonida o'quvchilarga tovushlar haqida ma'lumot berishda o'zbek tilining fonetik xususiyatlarini hisobga olishi zarur.

Savod o'rgatish analitik – sintetik tovush metodida olib boriladi. So'z bo'g'inga ajratiladi , bo'g'indan kerakli- o'rganilayotgan tovush ajratilib olinadi , tahlil qilinadi, o'rganilgan harf bilan sintezlanadi.

Hozirgi o'zbek unlilar sistemasi : a, o, o', u, i, e. Savod o'rgatishda tovush – harf bilan tanishtirish unlilardan boshlanadi.

e- harfi so'z va bo'g'in boshida o'rta keng lablanmagan unli o'rnida va undoshdan keyin yoziladi.

Savod o'rgatishda oldin so'z boshida keladigan –e (ye) so'ng undoshdan keyin keladigan –e o'rgatiladi.

-o harfi o'zbekcha, umurtqiy so'zlarda quyi keng, lablangan -o tovishini ifodalaydi . ruscha internasinal so'zlarda urg'usiz bo'g'inda –a tarzida (kalxoz) - o' tovushi kabi (to'nna)qisqa –i tarzida (rektir) talaffuz qilinadi. Shuning uchun bu unlili so'zlar savod o'rgatish davridan so'ng o'quv jarayoniga kiritiladi .

O'zbek tilida 24 undosh tovush bor. Shulardan 3 tasi xarf birikmasi, 24 undosh tovush 23 undosh xarf bilan belgilanadi. Undoshlarni o'rgatishda xam muayyan tartibga, talabga asoslaniladi.

Alifbo davri sonor- ovozli (ovozdor) tovushlarni o'rgatishdan boshlanadi. Lekin - ng sonor undoshi n va g undoshi tovush xarfi bilan tanishtirilgach o'rgatiladi. Harf

birikmalarini o'rgatishdagi qiyinchilik xisobga olingan xolda ular alifbe davrining oxirrog'ida o'rganiladi.

J xarfi ikki tovushni ifodalaydi, shuni xisobga olib, unga aloxida darslar ajratiladi. Savod o'rgatish jarayonidayok harfning 4 xil varianta (bosma, yozma, bosh va kichik) ning ishlatilishi o'rgatiladi.

O'quvchilarni o'qishga o'rgatish bo'g'in asosida olib boriladi. O'qishning dastlabki boskichida orfografiya o'qishdan foydalanilsa sekin- asta orfoepik o'qitish ko'nikmalari shakllantiriladi. Bo'g'inlab o'qikishga o'rgatish uchun so'zni bo'g'inga bo'lish, bo'g'in hosil qiluvchi tovushni aniqlash, ochiq-yopiq bo'g'inlarni farqlashga o'rgatish muhim sanaladi.

III.XULOSA

O'qish ham, yozish ham murakkab nutq faoliyati. U kichik yoshdagi o'quvchidan iroda, aql, hatto jismoniy xarakatni ham talab qiladi.

Kichik yoshdagi o'quvchini o'qishga o'rgatishda quyidagilar kuzatiladi:

1. Bola o'qish paytida bitta harfni ko'radi, uni bilish uchun oldingi ko'z oldiga keltirilgan rasmlarni yo boshka harflarni eslaydi, esga tushirgach, uni aytishga oshiqadi, biroq o'qituvchi aytishga yo'l qo'ymaydi, ikkinchi xarfni eslab ko'rguncha birinchisi esdan ko'tariladi, yoki ularni qo'shib butun, bug'indan so'z xosil qilguncha o'qish jarayoni sustlashadi.

Ko'pincha bola o'qiyotgan qatorni yo'qotib qo'yadi, xarfni, bo'g'inni, so'zni qayta o'qishiga to'g'ri keladi. O'quvchining diqqati kengaygan sari bo'g'in va so'zni butunligicha idrok eta boshlaydi.

3. O'qishni endi o'rganayotgan bola o'qiyotgan matn mazmunini o'zlashtirmaydi, chunki so'zni qanday o'qishga kuch beradi-da, so'z ma'nosiga e'tibor bermaydi. Darslikdagi rasmlar, o'qituvchining savollari, ko'rgazmali qurollar ongli o'qishlarini ta'minlaydi.

4. Tajribasiz kitobxon o'zni birinchi bo'g'iniga yoki rasmga qarab topadi. Bu xato o'qishga olib keladi. Bu xatoning oldini olish uchun so'z bo'g'inlab o'qitiladi, so'zni bunga-tovush tomondan tahlil qilishga, tovush -harf tomondan analiz va sintez qilishga diqqat qaratiladi.

O'qishni muvaffaqiyatli egallashlari uchun o'quvchilarning idroki, xotirasi, tafakkurini va nutqini o'stirishga katta e'tibor berish kerak. Savod o'rgatishda fonematik eshitish qobiliyatlarini o'stirish, turri va aniqq talaffuz qilishga o'rgatish, tovushni ajratish ko'nikmasini o'stirish muxim sanaladi.

Yozuv o'quvchilar ruchkani to'g'ri ushlash, daftarni to'g'ri qo'yish, xarfni yozishda yozuv chiziklari, ular bo'ylab qo'lni xarakatlantirishni esda saqlash, xarfni xarfga ulashi, qatorga sig'ish-sig'masligini mo'ljallashi lozim. Bular o'quvchini aqliy va jismonan charchatadi, ayniqsa, barmoq va elka muskullari charchaydi, bular darsda ikki- uch marta fizkultura mashklarini o'tkazishni taqozo etadi.

Adabiyotlar:

1. Abdullaeva K va boshqalar. Savod o'rgatish darslari. T., «O'qituvchi». 1996 y.

2. Abdullaeva Q. Raxmonbekova S. 2-sinfda. O'qish darslari. (O'qituvchi kitobi.) Toshkent. O'qituvchi, 2004 y.
3. Abdullaeva Q. va boshqalar. O'qish kitobi. 2-sinf Toshkent. O'zbekiston, 2003-yil.
4. G'afforova T., Shodmonov E., Eshturdieva G. «Alifbe»-(«Savod»); «Ona tili», T., «O'qituvchi», 1999- yil.
5. G'afforova T. G'ulomova X. 1-sinfda o'qish darslari (O'qituvchi Kitobi.) Toshkent. SHarq 2003 -yil.
6. SHojalilov A. va boshqalar.«O'qish Kitobi»,«O'qituvchi», 2004-yil. 8 Umarova M. «O'qish Kitobi» 3- sinf uchun. T., «O'qituvchi» 2003- yil.
7. Umarova M. 3-sinfda O'qish darslari (O'qituvchi Kitobi.) Toshkent «Ijod dunyosi» 2003.
8. SHojalilov A. va boshqalar. «O'qish Kitobi», «O'qituvchi», 2004 yil. II.Qosimova K., Fuzailov S. «Ona tili», 2-sinf uchun, T., «O'qituvchi», 2003- yil.
9. Fuzalov S., Xudoyberganova M. «Ona tili» 3-sinf uchun. T., «O'qituvchi» 2003 -yil.
10. IKromova R. Grammatika, imlo va nutq o'stirishdan tarqatma materiallar. T., «O'qituvchi», 2003- y.
11. 2-sinfda o'qitish. Tuzuvchi Mavlonova R.A.T., «O'qituvchi», 1977- y.
12. IKromova R. Grammatika, imlo va nutq o'stirishdan tarqatma materiallar. T., «O'qituvchi», 1993 -yil.
13. Ma'qulova B. va boshqalar. Boshlang'ich sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari. T., «O'qituvchi», 1996- yil.
14. Mirzaev I. Dars tahlili. T., «O'qituvchi», 1985- yil.
15. Oripov K., Obidova M. Ifodali o'qish. T., «O'qituvchi», 1982- yil.
16. To'rt yillik boshlang'ich sinflar dasturi. T., «O'qituvchi», 1999- y.
17. Umarova M, Hudoyberganov M. Bayonlar to'plami.T."O'qituvchi",1992-y
18. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodiikasi. T., 'O'qituvchi", 1985- yil.
19. Qosimova K., Ubaydullaeva.2-sinfda ona tili darslari.T., "O'qituvchi", 1987- y.
20. G'ulomov M. Husnixat metodikasi. T., "O'qituvchi", 1976 -yil.